

## EKOLOGIK TARBIYA VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT

*Normuxamedova Shoirra Alisher qizi*

*Toshkent shahridagi Yodju texnika institutining  
“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ekologik ziddiyatlar ortib borayotgan bugungi global olamda insoniyatning atrof-muhitga munosabatini ijobiy tarbiyalash va bolalarda ekologiyaga oid dastlabki savodxonlikni shakllantirish masalalari borasida fikr yuritiladi.*

**Kalit so’zlar:** *atrof-muhit, tozalik, atmosfera, biosfera, texnosfera, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, ekologik ta’lim, ekotizim, tirik mavjudot dunyosi.*

“Sayyoramizda o’tgan asrga nisbatan insoniyatning yashash tarzi shunchalik darajada o’zgardiki, natijada insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining misli ko’rilmagan darajada kamayib borishiyu, yer yuzining turli mintaqalarida qurg’oqchilik, suv toshqinlari kabi bir qator salbiy holatlar tez-tez kuzatiladigan bo’lib qoldi. Bularning barchasi, bir so’z bilan aytganda insonning tabiatga aralashuvini aqlga sig’maydigan darajaga yetishi oqibatidir”, - deyiladi “Xalq so’zi” gazetasiga tegishli online ruknlarning birida<sup>1</sup>.

Ma'lumki, fan - texnikaning jadal sur'atlar bilan taraqqiy etishi insonlar uchun dunyoni va uning mo’jizalarini yanada chuqurroq anglashga, uning yutuqlaridan inson salomatligi uchun samaraliroq foydalanishga, odamlar turmush tarzini yaxshilashga xizmat qilib kelmoqda.

Ilg’or tibbiyot texnikasining rivojlanishi esa inson salomatligini muhofaza qilish va kasalliklarni davolash borasida beqiyos darajada o’z samarasini ko’rsatmoqda. Lekin ba’zan mana shu ishlarning natijasi hamisha ham ijobiy yakun topmayotganligi achinarli holdir.

Chunonchi, yer kurrasida neftdan foydalanish oqibatida havoga 200 mln tonna is gazi (CO<sub>2</sub>), millionlab tonna benzin bug’i va boshqa bir qancha zararli moddalarning, gazlarning ajralib chiqib atmosferani zararlantirib, ekologik barqarorlikni izdan chiqarishi ham birortamizga sir emas.

Sanoat dudburonlaridan kuniga minglab tonna zaharli tutunlar ko’tarilib, xavoni zaharlaydi. Suv havzalariga million kubdan ziyod tozalanmagan va zararsizlantirilmagan oqova suvlar chiqarib tashlanadi. Atrof-muhitni yiliga 500 mln tonnadan ziyod sintetik moddalarning qoldiqlari ham ifloslantiradi.

---

<sup>1</sup>Mamasoliyeva Sh. “Global ekologik muammolar barqaror taraqqiyotga katta tahdid solmoqda. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?”// “Xalq so’zi”, 13 noyabr 2020. <https://xs.uz/uz/post/global-ekologik-muammolar-barqaror-taraqqiyotga-katta-tahdid-solmoqda-buning-oldini-olish-uchun-nima-qilish-kerak>.

Millionlarcha avtomobil, traktor, samalyot va boshqalarning dvigatellari havodagi mavjud kislorodni «yeb» evaziga is gazi va boshqa gazlar bilan ifloslantirmoqdalar. Bu esa yiliga atmosfera havosiga tonnalab zararli omillar singib ketayotganligini anglatadi.

1753-yilga qadar odamlar havo bir nechta gazlar qorishmasidan iborat ekanini bilishmasdi. Aslida havoning 95 foizi azot va kislorod, qolgan qismi argon, vodorod va boshqa gazlardan iborat bo'ladi. Har kuni odam 22 kilogrammga yaqin havo oladi. Avtomobillarga esa bundan-da ko'proq havo zarur bo'ladi. Bitta avtomobil oladigan havo odam uchun 10 kunga yetadi<sup>2</sup>.

Yashil daraxtlarning karbonat angidridi (CO<sub>2</sub>) olib kislorod (O<sub>2</sub>) chiqarishini hisobga olinsa, hozirgi kunda ular sonining keskin kamayib ketishi ham muammoli bir vaziyat ekanligini anglatadi. Masalan, AQShda dastlab 170 mln gektar yam-yashil o'rmonlar bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda 7-8 mln gektarga yo yetadi, yoki yetmaydi. Angliyada ham xuddi shuning oqibatida har yili bronxit xastaligidan 30 ming kishi nobud bo'lib, 20 mln ish kuni yo'qotiladi. Yer yuzidagi kislorodning asosiy qismini Janubiy Amerika changalzorlari, Sibir o'rmonlari ishlab chiqaradi. Bu maskanlar havoni tozalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eslatib o'tamiz, havo tarkibidagi kislorod jami 21 foizni tashkil etadi<sup>3</sup>.

Tadqiqot natijalariga ko'ra atrof-muhit ifloslanishidan erta o'lim OITS, sil va bezgak kasalligiga chalinganlarga qaraganda uch baravar ko'pdir. Dunyoda har oltinchi o'limdan bittasi atrof-muhitning ifloslanishi tufayli yuzaga keladi. Kam va o'rta daromadli mamlakatlar atrof-muhitning ifloslanishidan vafot etganlarning eng ko'p soniga (92 foiz) to'g'ri keladi. Sanoati jadal rivojlanayotgan Xitoy, Hindiston, Pokiston yoki Keniya kabi mamlakatlarda har to'rtinchi kishining bevaqt o'limiga ifloslanish sabab bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarni mushohada qilib ko'rsak, atrof-muhitga munosabatni faqat muammo paydo bo'lgandan keyin bildirish emas, balki avvaldan, kerak bo'lsa bolalikdan shakllantirib va tarbiyalab borish joizligini anglaymiz. Demak, o'z-o'zidan ekologik tarbiyaga ehtiyoj tug'iladi. Bolalarda ekologik tarbiyani singdirishni asosiy maqsadi, bu tabiat hodisalari va ob'ektlariga to'g'ri munosabatda bo'lishni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonni amalga oshirish uchun bolalar tomonidan tabiatni to'g'ri anglash, bilish, o'simlik va tirik organizm bo'lmish hayvonlarning rivojlanishi bilan tanishtirish zarurdir.

Ekologik tarbiya insonlarning atrof-muhitga befarq bo'lmasligini ta'minlashdir. Ekologik tarbiyash jarayonida yosh avlodni yashab turgan ona tabiat boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatib boriladi. Buyuk ajdodlarimiz yosh avlodga

---

<sup>2</sup>Olimjon Hayit. "Havo haqida qiziqarli faktlar..."//Hordiq.uz, 11.06.2019 y. <https://hordiq.uz/2019/06/11/havo-haqida-qiziqarli-faktlar/?lang=lat>.

<sup>3</sup>O'sha manba.

ekologik tarbiya berish masalasiga alohida e'tibor berganlar. Bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalarni go'daklik chog'laridanoq ahloqiy va mehnat tarbiyasi oiladan shakllanib boradi. Ularga mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat xissi bilan singdirilgan. Avvalambor, bolalarda ekologik madaniyat ko'nikmalarini shakllantirishda biz kattalarning tabiatga bo'lgan munosabatimiz alohida o'rin tutadi. Bolalar biz kattalardan shu tariqa o'rnak olishadi. Oila davrasida birgalikda obodonlashtirish uchun turli xil ishlarni amalga oshiramiz.

Vatanimiz tabiat haqida faxrlanishi, shu bilan birga qayg'urishi uchun ham ekologik ta'limning maqsadi bo'lishi kerak. Atrof-muhit muhofazasi, tabiat va jamiyat qonunlari, aholining ongi va madaniyati, yoshlarning ekologik bilimi, ekologik ta'lim va tarbiya, ekologik ma'naviyat-bular hammasi bir-biriga uzviy bog'liqdir. Shu o'rinda ekologik tarbiyani shakllantirish orqali tabiat haqidagi tasavvur, mehnat mashg'ulotlari haqidagi ma'lumotlar berib boriladi.

Inson o'z hayoti va faoliyati, shuningdek, barcha tirik mavjudot dunyosi - biosfera uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan miqyosdagi buzuvchanlik qudratiga ega bo'lgan, katta va kutilmagan salbiy o'zgarishlar, atrof-muhitga uzoqni o'ylamay qilingan munosabat, xatolar va yangi ishlarning hosilasi sifatida hozirgi yer yuzidagi vaziyat yuzaga keldi. Biosferada inson faoliyati tufayli turli ijobiy va salbiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Inson o'z mehnatini yengillashtirish maqsadida yaratgan texnika vositalari, biosfera tarkibida texnosferani hosil bo'lishiga muvaffaq bo'ldi. Bu esa o'z navbatida atrof-muhit holatini salbiy tomonga o'zgartirdi. Biosfera bu ulkan sistema, uni inson to'la-to'kis boshqarishga qodir emas. Biosfera holatini yaxshilash uchun inson unga ijobiy ta'sir etishni ko'paytirishi lozim. Hozirgi ekologik muammolar insoniyatni biosferaga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga undayapti. Insonlar atrof-muhit holatiga befarq emaslar. Bu muhitning holatini baholay olishlari uchun esa ularda ekologik ong bo'lishi kerak. Ekologik ongning shakllanishi natijasida ekologik madaniyat tarkib topadi. Biz ana shu madaniyatni bolalaidan shakllantirishga erishishimiz zarur.

#### **Foydalanish uchun tavsiya etilgan manbalar:**

1. Yormatov D. Norqulov A. Avazov Sh. Sultonov N. “Sanoat ekologiyasi”, T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2007 y.
2. Otaboyev S. Nabiyev M. “Inson va biosfera”. T.: “O'qituvchi”, 1995 y.
3. To'xtayev A., Xamidov A., Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. T.: “O'qituvchi”, 1994 y.
4. Mamasoliyeva Sh. “Global ekologik muammolar barqaror taraqqiyotga katta tahdid solmoqda. Buning oldini olish uchun nima qilish kerak?”// “Xalq so'zi”, 13 noyabr 2020. <https://xs.uz/uz/post/global-ekologik-muammolar-barqaror-taraqqiyotga-katta-tahdid-solmoqda-buning-oldini-olish-uchun-nima-qilish-kerak>.
5. Olimjon Hayit. “Havo haqida qiziqarli faktlar...”//Hordiq.uz, 11.06.2019 y. <https://hordiq.uz/2019/06/11/havo-haqida-qiziqarli-faktlar/?lang=lat>.